

Normuminov Laziz Yuldosh o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika

universitetining Tillar fakulteti talabasi

normuminovlaziz36gmail.com

+998933960699

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yozuvchi asar yaratayotganida har bir hodisa, tabiat manzarasi, umuman, voqelikka o'z nazari bilan qaraydi. U asar g'oyasidan kelib chiqib, mos detal tanlaydi va o'sha tanlangan detal orqali asar mazmunida salmoqli o'rin tutgan fikrni ifodalashi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Oybek, yozuvchi, asar, g'oya, ifodalash, mehnat faoliyati, tabiat manzaralari, faoliyat, adabiyot.*

Oybek – 1905 yilda 10 yanvarda Toshkentning Govkush mahallasida tug'ilgan Muso Toshmuhammadning adabiy taxallusi. “Bolalik xotiralarim” (1963) asarida bolaligini: ota-onasi, qarindoshlari, 20 asr boshidagi Toshkent va uning atrofidagi qishloq, kentlarni, ilk sabog'i, saboqdoshlarini tasvirlaydi.

Oybek mehnat faoliyatini talabalik yillaridan boshlab, o'rta maktab, texnikum va ishchilar fakultetlarida (1925-1927), Xalq xo'jaligi, Qishloq xo'jalik va Pedagogika institutlarida til va adabiyot fanlaridan dars beradi, Toshkent institutining iqtisod fakultetida esa assistent sifatida xizmat qiladi.

Adabiyot – so'z san'ati demak. Uning har qanday ifodaviy imkoniyati so'z bilan chegaralanadi. Ayni damda, so'zning ifodaviy imkoniyati cheksiz ekanligini ta'kidlash zarur. Yuqorida aytib o'tganimizday, ijodkor so'z vositasida ham o'quvchiga musavvirlarday tasvir asosida ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega. Ya'ni musiqa va tasviriy san'atning ifodaviy imkoniyatlaridan keng foydalanishi mumkin. Shoir badiiy ifodada boshqa san'at turlari imkoniyatiga murojaat etarkan, muayyan so'z, jumlaning badiiy-tasviriy imkoniyatiga jiddiy ahamiyat qaratadi.

Yozuvchi asar yaratayotganida har bir hodisa, tabiat manzarasi, umuman, voqelikka o'z nazari bilan qaraydi. U asar g'oyasidan kelib chiqib, mos detal tanlaydi va o'sha tanlangan detal orqali asar mazmunida salmoqli o'rin tutgan fikrni ifodalaydi. Masalan, badiiy asarlarda tabiat tasviri berilayotganda ijodkorlar tez-tez murojaat qiladigan yomg'ir tasvirini har kim o'zgacha, o'z kayfiyatiga uyg'un, vaziyatni hisobga olgan holda beradi: "mayin, beg'ubor yomg'ir tomchilari", "hayotbaxsh yoqimli yomg'ir", "bahor yomg'iri" va shunga o'xshash tabiat hodisalari inson ruhiy holatining ijobiy tomonlari, hayotning go'zalligi, mazmuni, ko'klam tarovatini tarannum etsa, "qora bulut", "chaqmoq", "sovuq yomg'ir tomchilari", "kuchli jala" kabi tasvirlar inson ruhiyatidagi salbiy holatlar, qo'rquv, ichki g'alayon, xavf-xatar yoki tushkunliklardan

darak beradi. Bunday tasvirlarda san'atkor tabiat hodisasi bo'lgan yomg'irni asar ixtiyoriga bo'ysundiradi, asar personajlari yoki bosh qahramonning ichki kechinmalari, voqelikka munosabatini shu tasvir vositasida ifodalaydi va bunda san'atkorning o'ziga xos uslubi namoyon bo'ladi.

Badiiy asarda muallif o'z muddaosini ro'yobga chiqarish uchun tas-viriy va ifodaviy vositalardan foydalanadi. Asardagi tabiat manzaralari kitobxonning biror narsa haqida tasavvur hosil qilishi, muayyan tuyg'uni his etishi, ko'rish, eshitish mumkin bo'lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsurlar tasviriy vositalar hisoblansa, asarda so'z va iboralarning turli ma'no tovlanishlari, majoziy xususiyatlari, voqea-hodisalarni turli yo'llar bilan ifodalash usullari-ifodaviy vositalar sanaladi.

Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki tabiat manzarasi tasvirida ijodkorning so'z boyligi, uni qo'llash darajasi, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi. Yuqoridagi parchada adib atrof-muhitning go'zalligini xuddi musavvirdek qalamga oladi. Undagi har bir detal muayyan maq-sadga qaratiladi. Kitobxon uni o'qir ekan, vaziyatni aniq-tiniq ko'z oldiga keltira oladi. Buni boshqa tilga o'giruvchi tarjimon ham muallif uslubini to'laqonli qayta yaratish, parchani asliyat ohangini saqlangan holda o'girishga harakat qiladi. Turli sifatlash, o'xshatish va boshqa turli badiiy san'atlarni qo'llashga urinadi.

Mumtoz adabiyot va u bilan parallel ravishda rivojlanib kelgan mumtoz miniatyura san'atlaridan farqli holda, zamonaviy o'zbek adabiyotida ham, tasviriy san'atida ham ob'yektni jonli, ayni damda, realistik tasvirlash tamoyili kuchaydi. Endi ijodkor borliqni mumtoz san'atlardagi kabi shartli unsurlar asosidagina ko'rmay, balki ob'yektning mavjud holida go'zallik va hikmat ko'rishga intiladi, ya'ni estetik nigohning mo'ljali qayta sozlanadi. O'tgan asr avvalida zamonaviy rangtasvir, teatr va kinematografiyaning ifoda shakllari o'zaro uyg'un holda san'atning yangi bir bosqichiga asos soldi desak, mubolag'a bo'lmas. Chunki ahamiyati kundan kunga ortib borayotgan vizual san'atlarning ta'siri badiiy adabiyotni, xususan, she'riyatni ham chetlab o'tmaydi. Endi shoir o'quvchining estetik ehtiyojiga monand she'rda tasviriylikka, histuyg'ularini vizual obrazlar asosida ulashishga intiladi. Zamonaviy o'zbek she'riyatining rangtasvir bilan sintezidagi dastlabki yorqin namunalarni Oybek ijodida kuzatish mumkin:

Oybek tabiatni shunchaki chizmagan. Bir qarashda bu o'rinda "chizmoq" so'zini qo'llash erish tuyuladi. Boisi, she'r misralarida manzara detallashtirilmagan. Shoir yaratgan manzara real hayotdagi ko'rinishidan birmuncha farq qilib, unga ijodkorning real manzaradan olgan taassurotlari yig'indisi sifatida qarash mumkin. Chunki bu she'rni o'qib ongimizda gavdalanadigan manzara turli tasviriy detallar vositasida emas, balki yaxlit taassurotlar asosida namoyon bo'layotganini his qilamiz. She'riy parchada go'zal manzara – kunning botishi lahzalari tasvirlanadi. Keling, o'sha go'zal manzarani real hayotdagi ko'rinishini eslaylik: botayotgan quyosh qizg'ish tusga kirgan. Ufq

chizig‘i bo‘ylab uning faqat yarmigina bizga ko‘rinadi. Atrofidagi bulutlar esa qizilga moyil, ammo turli ranglarda tovlanadi. Butun ufq bo‘ylab o‘sha qizil rang, qizillik hukmron... Agar obrazli qilib ifodalashga ehtiyoj tug‘ilsa, bu xuddi atlasdan libos kiygan qizil yuzli qizni yodga soladi. Oybek esa manzarani biz kabi detallar asosida chizib o‘tirmaydi. U o‘zida real manzara uyg‘otgan ilk taassurotni qalamga oladi va o‘quvchini ham manzarani shunday ko‘rishga undaydi. She‘rxon manzarini kuzatish asnosida muayyan taassurot hosil qilmaydi, aksincha, taassurotlar asosida yaxlit manzarani ko‘radi. She‘rni o‘qirkansiz, real ko‘rinishdan ozroq farqlanuvchi, ko‘proq ta’sirlantiruvchi manzara ko‘z oldingizda namoyon bo‘la boshlaydi. Xuddi shunday tasvirni shoirning “Kechqurun”, “Qish kechasi”, “Yalta kechasi”, “Yoz kechasi”, “Dengizda oqshom”, “Na‘matak” va boshqa ko‘plab she‘rlarida ham kuzatishimiz mumkin:

Suvlarda sekin o‘ynar,
 Oltin qayiqchalardek,
 Quyosh alangalari...
 G‘urub yong‘ini qoplar,
 Samo yuzi anordek,
 Bulutlar atlas kabi...
 Ufqlar qulochiga
 Sig‘magan buyuk dengiz
 Chayqalar sekingina.
 Suvlar quyosh sochiga
 O‘ralashib tinimsiz
 O‘par qirg‘oqni asta...

Oybekning “Dengizda oqshom” she‘ri 1930 yilning oktyabr oylari Sochida yozilgan. Demak, she‘r bevosita dengiz qarshisida bitilgan bo‘lishi mumkin. Bu she‘r ham shoirning ko‘plab asarlari qatori to‘laligicha manzara tasviriga bag‘ishlanadi. Shoirga manzaraning har bir unsuri nimanidir eslatadi: “oltin qayiqcha”, “samo yuzi anordek”, “atlas bulutlar”, “ufqlar qulochi”, “quyosh sochi”, “o‘par qirg‘oqni” kabi obrazlar ana shu taassurotlarning mahsulidir. E‘tibor qilsangiz, kichik tashbehlarning asosida tabiatning butun ko‘rinishi namoyon bo‘lmoqda. Bu o‘rinda shoir poetik nigohining o‘tkirligi, tasvirlash mahorati shunchaki go‘zal tashbehlarning topa bilganidagina emas, birinchi navbatda, o‘sha tashbehlarning vizual (ko‘rimli) ekanidadir. Oybek dengizni shunday tasvirleydiki, o‘quvchi manzarani xuddi ko‘zlari bilan ko‘rib turganday zavqlana boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A'zamxonov S.X Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313>
2. A'zamxonov S.X Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili 247-254 -b <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533>
3. Bahodir o'g'li I. M. Yoshlarning Ijtimoiy Faolligini Oshirish Jamiyat Rivojlanishining Omili Sifatida //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 24. – С. 521-523.
4. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz/soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>
5. Akhmedova F. Attitude of young people to education Журнал социальных исследований, 2021